

HAMSHIRA VA LABORANTLARNING TIBBIYOTDAGI O'RNI

Urinova Dilafruz Radjabovna

*Respublika sud-tibbiy ekspertiza ilmiy-amaliy markazi
Toshkent viloyat filiali Qayta, komission va kompleks
ekspertizalar bo'limi laboranti.*



Annotatsiya.

Hamshira va laborantlar tibbiyot tizimining ajralmas bo'g'ini hisoblanadi. Hamshiralar bemorlarni parvarish qilish, muolajalarni o'tkazish va shifokor ko'rsatmalarini bajarishda muhim rol o'ynaydi. Laborantlar esa tashxis qo'yish jarayonida laboratoriya tahlillarini o'tkazish orqali shifokorlarga aniq ma'lumotlar taqdim etadi. Ushbu maqolada hamshira va laborantlarning kasbiy faoliyati, ularning bemorlar salomatligini saqlashdagi ahamiyati hamda tibbiyot tizimidagi roli yoritiladi.

Kalit so'zlar: hamshira, laborant, tibbiyot, parvarish, diagnostika, laboratoriya tahlili, sog'liqni saqlash, shifokor yordamchisi, bemor parvarishi, tibbiy xizmat.

Аннотация.

Медсестры и лаборанты являются неотъемлемой частью медицинской системы. Медсестры играют важную роль в проведении пациентов, проведении лечения и выполнении медицинских инструкций. Помощники лаборатории предоставляют врачам четкую информацию через лабораторные испытания во время диагноза. Профессиональная деятельность медсестер и лабораторных помощников, поддержание их здоровья и роль в медицинской системе.

Ключевые слова: медсестра, лабораторный помощник, медицинский, уход, диагноз, лабораторный анализ, здоровье, помощник, уход за пациентами, медицинская помощь, медицинская помощь.

Annotation.

Nurse and laboratory assistants are an integral part of the medical system. The nurses play an important role in conducting patients, conducting treatments and performing medical instructions. The laboratory assistants provide clear information to doctors through laboratory tests during the diagnosis. The professional activity of nurses and laboratory assistants, the maintenance of their health and the role in the medical system.

Keywords: nurse, laboratory assistant, medical, care, diagnosis, laboratory analysis, health, assistant, patient care, medical care, medical care.

Mustaqillikka erishgandan keyin respublikamizda tibbiyot sohasida hamshiralik ishiga e'tibor kuchaytirilib borilmoqda, ularning chet davlatlarda o'tkazilayotgan

anjumanlarda ishtirok etishi va malakalarini oshirishi, tibbiyot institutlarida oliv ma'lumotli hamshiralik ishi bo'limlarining ochilishi, Respublikada O'rta tibbiyot va dorishunos xodimlar assotsiatsiyasining tashkil etilishi, tibbiyot amaliyotini keng ko'lamda yo'lga qo'yilishi tibbiy ta' lim tizimini isloh qilishni taqozo etadi. Respublikada hamshiralik ishini rivojlantirish, O'rta tibbiyot xodimlarining nazariy va amaliy bilim, g'oyaviy va umum madaniy darajasini ko'tarishga ko'maklashish, ularning amaliy ishlarni tashkil etishining sifat darajasini oshirish maqsadida O'rta tibbiyot xodimlaridan iborat hamshiralalar maslahat kengashi tuzilgan.

Tibbiyot sohasida hamshira va laborantlar muhim o'rin tutadi. Ularning kasbiy faoliyati bevosita bemorlarning sog'lig'ini saqlash, davolash jarayonlarini samarali tashkil etish va diagnostik jarayonlarni to'g'ri yo'lga qo'yishga qaratilgan. Hamshiralalar shifokor ko'rsatmalarini bajarish, bemorlarga sifatlari parvarish ko'rsatish va ularga psixologik qo'llab-quvvatlash berish bilan shug'ullanadi. Laborantlar esa laboratoriya tahlillarini o'tkazib, shifokorlarga tashxis qo'yishda muhim ma'lumotlar taqdim etadi.

Zamonaviy tibbiyotda bu kasb egalari nafaqat texnik bilimlarga ega bo'lishi, balki insonparvarlik, diqqat-e'tibor va yuqori mas'uliyat bilan ishlashi talab etiladi. Ushbu maqolada hamshira va laborantlarning asosiy vazifalari, ularning tibbiyot tizimidagi o'rni hamda bemorlarni davolash jarayonidagi ahamiyati yoritiladi.

Hamshira — o'rta ma'lumotli tibbiyot xodimi. Davolash-profilaktika muassasalarida hamshira vrach yordamchisi bo'lib, u bilan hamkorlikda ish olib boradi. Hamshira bemorlarni parvarish qilish, haroratni o'lchash, dori tarqatish, davolash muolajalari (kompress, gorchichnik qo'yish va hokazo) va boshqa vazifalarni bajaradi. Hamshiralalar turli tibbiyot muassasalari (kasalxona, poliklinika, dispanser, sanatoriy va boshqalar)da, shuningdek, yasli va bolalar bog'chasida xizmat qiladi. Hamshiralikka tibbiyot kollejlarida o'qitiladi. Toshkent pediatriya tibbiyot instituti, Toshkent tibbiyot akademiyasi hamda boshqa tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida alohida fakultet mavjud bo'lib, unda oliy ma'lumotli hamshiralalar tayyorlanadi.

Laborantlar sog'lijni saqlash tizimida muhim rol o'ynaydi. Ular bemorlarning kasalliklarini aniqlash va to'g'ri tashxis qo'yishda shifokorlarga yordam beruvchi mutaxassislardir. Laboratoriya tahlillari shifokor qarorining asosini tashkil qiladi, shuning uchun laborantlarning ishi aniq va mas'uliyatli bo'lishi kerak.

Laborantlarning aniqligi va malakasi tibbiy diagnostikaning asosiy bo'g'ini bo'lib, bemorlarning samarali davolanishiga bevosita ta'sir qiladi. Shu sababli, ularning ishi tibbiyotda juda katta ahamiyat kasb etadi.

Hamshira va laborantlar tibbiyot sohasida muhim rol o'ynaydigan mutaxassislardir. Ularning vazifalari bemorlarga sifatlari xizmat ko'rsatish, diagnostika jarayonlarini to'g'ri olib borish va shifokorlarga yordam berish bilan bog'liq.

Hamshiralarning o‘rni

•Bemor parvarishi – Hamshiralar bemorlarga doimiy yordam ko‘rsatadi, ularning ahvolini kuzatadi va parvarish qiladi.

•Dorilarni yetkazib berish – Shifokor tomonidan buyurilgan dorilarni to‘g‘ri vaqtida va to‘g‘ri dozalarda bemorlarga berishadi.

1. Tibbiy muolajalarni bajarish – Inyeksiya qilish, qon bosimini o‘lchash, yaralarni bog‘lash kabi muolajalarni amalga oshiradi.

•Bemor va oila a’zolarini o‘qitish – Kasallikning oldini olish va parvarish bo‘yicha maslahatlar berishadi.

•Favqulodda vaziyatlarda yordam – Tez yordam chaqirish, birinchi tibbiy yordam ko‘rsatish kabi muhim vazifalarni bajarishadi.

Laborantlarning o‘rni: Tahlillarni o‘tkazish – Qon, siydk, to‘qimalar va boshqa namunalardan tahlillar olib, diagnostika uchun aniq natijalar taqdim etadi.

•Laboratoriya jihozlarini boshqarish – Tahlillarni aniq va to‘g‘ri bajarish uchun laboratoriya asbob-uskunalaridan foydalanadi.

•Natijalarni tahlil qilish va shifokorlarga taqdim etish – Laboratoriya natijalarini shifokorlarga yetkazib, ularning tashxis qo‘yishiga yordam beradi.

•Infeksiya nazorati – Kasalxonalarda sterilizatsiya va gigiena talablariga rioya qilinishini nazorat qiladi.

•Tadqiqot ishlari – Yangi laboratoriya usullari va dorilar ustida tadqiqot olib borishda ishtirok etishi mumkin.

Hamshira va laborantlar tibbiyotning ajralmas qismi bo‘lib, ular shifokorlar bilan birgalikda kasalliklarni aniqlash va davolash jarayonining samaradorligini oshiradi.

Xulosa: Hamshira va laborantlar tibbiyot tizimining ajralmas bo‘g‘ini hisoblanadi. Ular bemorlarning parvarishi, diagnostika jarayonlari va tibbiy xizmat sifatini oshirishda muhim rol o‘ynaydi. Hamshiralar bemorlarga bevosita yordam berib, ularning salomatligini nazorat qiladi va tibbiy muolajalarni bajaradi. Laborantlar esa laboratoriya tahlillari orqali aniq tashxis qo‘yishda shifokorlarga yordam beradi.

Ushbu mutaxassislarning mehnati tufayli kasalliklarni erta aniqlash, to‘g‘ri davolash va profilaktika choralari samarali amalga oshiriladi. Shu bois, ularning kasbiy mahorati va fidoyiligi tibbiyotning rivojlanishida katta ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1.Mamatkulov B.M. Jamoat salomatligi va sog‘liqni saqlashni boshkarish. //darslik, Toshkent, 2013. 573b.

2. T.I.Iskandarov, B.Mamatkulov Sanitariya-statistik va ijtimoiygigienik tadqiqot uslublari. //darslik,Toshkent, 1994. – 200 b.

3.Muminov H. Sog’lom turmush tarsi – salomatlik ilmi va amali. T. 2006. 394b.

4. Gadaev A., Salihodjaeva R.K., Rahmonov N.Sh. Hamshiralar faoliyatida profilaktika. T. 2012.-160b.